

## **DEVIANT XULQ-ATVORLI O`SMIRLARNING IJTIMOIIY MOSLASHUVINI TAKOMILLASHTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI**

*Osiyo Xalqaro universiteti 1-bosqich magistranti*

***Murotov Bexruz Mustafoyevich***

*BuxDU psixologiya va sotsiologiya kafedrasi dotsenti*

***Olimov Laziz Yarashovich***

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kunda yoshlar davlatimizning asosiy bo`g`ini ekanligi va shu bilan birga xulqida og`ishish bo`lgan shaxslarni deviant xulq-atvoriga ega bo`layotganligi shu sababli yoshlarni ijtimoiy muhiti eng asosiy o`rinda turishi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, o`smir holatidagi ichki motivatsion ziddiyatlar, o`smirning o`zi-o`zini aniqlash muammosi kabi fikr-mulohazalar turli xorij olimlar talqinida tahlil qilingan.

**Kalit so`zlar:** psixologik imkoniyat, ichki motivatsion ziddiyat, ehtiyoj, ijtimoiy rollar, determinatsiya, kontekst, individual ong.

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo`lidan ma`lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo`lishi o`sha davlatda yoshlar ta`lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e`tibor darajasiga bog`liq. Respublikamizda o`ziga xos izchillik bilan amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning tub markazida shaxs va uning ijtimoiy taraqqiyotini ta`minlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar yotadiki, bu jarayonda psixologik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, har bir shaxs va uning ijtimoiy muhit bilan bog`liq o`ziga xos psixologik imkoniyatlariga yetarlicha baho bermay turib shaxsning taraqqiyotiga hozirgi zamon talablariga mos tarbiyaviy ta`sir etish juda mushkuldir. Bugungi kunda talaygina o`smirlar o`quv faoliyatida juda ko`plab muvaffaqiyatsizliklarga uchrayotganliklarini kuyunib gapirmoqdalar, shuningdek, kattalar tomonidan ularga bildirilayotgan muomala

jarayonidan qoniqmay kelayotganliklari va buning oqibatida qattiq asabiylashgan holda faoliyat yuritayotganliklarini qayta-qayta ta'kidlaydilar. Bularning barchasi o'smirlarni alohida o'rganish doirasidagi tadqiqotlarga bo'lgan ehtiyojning tobora ortib borayotganligini ko'rsatadi. O'smir holatidagi ichki motivatsion ziddiyatlarning mavjudligi uning ijtimoiy rollari va ehtiyojlari darajasi tuzilmasining o'zgarishi bugungi o'smirlar faolligini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. "Men" timsolini talqin qilish muammosi o'zini-o'zi aniqlash bilan bevosita bog'liqdir. Binobarin, o'zini o'zi aniqlash muammosiga psixologik yondashishning metodologik asoslari S.L. Rubinshteyn tomonidan ifodalab berilgan edi. O'zini o'zi aniqlash muammosi S.L. Rubinshteyn tomonidan tadqiq qilinishicha tashqi sabablar ichki sharoitlarga singgan holda harakat qiladi: tashqi sabablar ichki sharoitlar orqali shunday ta'sir qiladiki, bunda ta'sir samarasi obyektning ichki xossalari bog'liq bo'ladi – bu har qanday determinatsiya boshqa tashqi determinatsiya sifatida va o'zini o'zi aniqlash sifatida zarurligini bildiradi. Mazkur yondashuv N.V.Samoukina tomonidan e'tirof etiladi. Mazkur kontekstda o'zini o'zi aniqlash o'zini o'zi determinatsiyalash sifatida qatnashadi, tashqi determinatsiyadan farqli ravishda o'zini o'zi aniqlash tushunchasida shu tarzda "ichki sharoitlar"ning faol tabiati namoyon bo'ladi. Bundan tashqari inson mavjudligi xususiyatining o'zi ham o'zini o'zi aniqlash va boshqalar (sharoitlar, holatlar) tomonidan aniqlash o'rtasidagi mutanosiblik me'yorida, insonda ong va xatti-harakat mavjudligi bilan bog'liq o'zini o'zi aniqlash xarakterida ifodalanadi. Shunday qilib, konkret psixologik nazariya darajasida o'zini o'zi aniqlash muammosi quyidagicha ko'rinishga ega. Inson uchun tashqi sabablar, tashqi determinatsiya – bu ijtimoiy sharoitlar va ijtimoiy determinatsiya. O'zini o'zi aniqlash o'zini o'zi determinatsiyalash sifatida tushunilganda ijtimoiy determinatsiya mexanizmi bo'lib, subyektning o'zi tomonidan faol singdirilmasdan boshqacha ta'sir qila olmaydi. O'zini o'zi aniqlash muammosi, shu tariqa individ va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir muammosi bo'lib, uning markazida mana shu o'zaro ta'sirning asosiy ko'rinishlari namoyon bo'ladi: individual ongning ijtimoiy determinatsiyasi (kengroq-psixikaning) va bu determinatsiyada subyektning xususiy faolligi bilan baholanadi. Turli darajalarda bu

o'zaro ta'sir o'zining maxsus xarakteristikalariga ega, ular o'zini o'zi aniqlash bo'yicha turli psixologik nazariyalarda o'z aksini topgan. S.L.Rubinshteynning ta'kidlashicha, har bir inson ongli ijtimoiy sub'ekt bo'lish bilan bir vaqtda shaxs hamdir. Boshqa odamlarga o'z munosabatini aniqlab, u o'zini o'zi aniqlaydi. Shaxs o'zining real borlig'ida, uning o'zini o'zi anglashida o'zini sub'ekt sifatida anglagan holda o'zini "Men" bilan ataydigan insondir. O'zini o'zi aniqlash mexanizmi – bu insonni atrof-muhitga va bu muhitda o'ziga umumlashtiril-gan munosabatini rivojlantiruvchi subyekt sifatidagi kamolga etishidir. S.L. Rubinshteyn g'oyalarini davom ettirib va rivojlantirib A.D. Glotochkin shuni ta'kidlaydiki, atrof-muhit bilan o'zaro ta'sir shaxsning dinamik o'zini o'zi aniqlashini nazarda tutadi. U o'z tadqiqotlariga asoslangan holda shuni aytib o'tadiki, shaxs psixologik tuzilmasi kontseptsiyasining hech biri dinamik bo'la olmaydi. O'smirlik davrida o'zini o'zi anglashning alohida ko'rsatkichlari taniqli psixolog L.S.Vigotskiy tomonidan ajratib ko'rsatilgan – o'z obrazini integratsiyalash, tashqaridan uni ichkariga ko'chirish kabilar hisoblanadi. Bu yosh davrida o'ziga "tashqari"dan "obyektiv" qarash jarayoni "ichkari"dan subyektiv, qarash dinamik pozitsiya bilan o'rin almashadi. Umuman, o'zini o'zi boshqarishda ob'ektning o'zi haqidagi adekvat tasavvurlari, o'zini o'zi anglash imkoniyatlari ishtirok etish lozim bo'ladi. O'zini o'zi anglashning rivojlanishi, har qanday murakkab psixik yangi tuzilma singari, bir birining o'rnini bosuvchi qator bosqichlardan o'tadi. SHu nuqtai nazardan, o'smirlik davridagi o'zini o'zi anglashning yangi darajasi shakllanishining boshlanishini integrativ sifatlar rivojlanishi va chuqurlashishi sifatida tavsiflash mumkin. Bunda shaxslilik refleksiya muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, o'smirning o'zini o'zi, o'z ichki dunyosini bilishining asosiy mexanizmlaridan biri shaxslilik refleksiya bo'lib, u shaxsiy o'zini bilish faoliyati, alohida tadqiqot akti sifatida tushuniladi. Aynan shu davrda o'z shaxslilik xususiyatlarining atrof-dagilar tomonidan baholanishiga qiziqish ortadi. Qiziqishlarda sezilarli siljishlar yuz beradi, ma'naviy ehtiyojlar rivojlanadi, kelajakdagi qadriyatlar yo'nalishi ierarxiyasi quriladi. Rivojlanishning mazkur bosqichida ahloqiy ideallarning jadal shakllanishi yuz beradi, ahloqiy hissiyotlar rivojlanadi. G.S.Abramovanning fikricha,

o'smirlik davrida individni avtoritet manbalar qoniqtirmay qoladi, u xulq-atvor qoidalarini "ishonch" sifatida qabul qilishni to'xtatadi. Avtoritetlarni "buzib tashlash" psixologik ehtiyojga, o'z ahloqiy va intellektual izlanishlarining manbaiga aylanadi. O'smirlardagi o'zini o'zi baholashning shakllanishi asosida turuvchi tasavvurlar o'zini boshqa odamlar bilan taqqoslash natijasida yuzaga keluvchi o'zini o'zi bilish davomida orttiriladi. Bu davr uchun emansipatsiya reaksiyalari, ota-onalar, o'qituvchilar bilan nizolarga kirishish, mustaqillikka intilish ortadi. S.A.Belichevaning fikricha, bunday reaksiyalarning namoyon bo'lishi tasodifiy emas, shunday tarzda o'smirda shakllanayotgan ong va o'zini o'zi anglash kattalarning singdiruvchi ta'siridan, bolaning ijtimoiy moslashuvida shu paytgacha yetakchi rol o'ynagan ijtimoiylashuvning anglanmagan mexanizmlaridan "himoyalanaadi". O'smirda o'zini o'zi baholash tizimi turg'un xarakterga ega bo'ladi. Uning xulq-atvori va faoliyati ko'proq o'zini o'zi baholash bilan aniqlanadi. Shunday qilib, yuqori darajadagi o'zini o'zi baholashda o'smirda atrofdagilar bilan nizolar yuzaga keladi. O'zini o'zi baholash faqatgina o'smirning boshqa odamlar bilan muloqoti jarayonida yuzaga keladi va shakllanadi. Atrofdagilar bilan o'zaro ta'sirga kirib, o'smir doim o'zini boshqalar bilan taqqoslaydi va bu taqqoslash asosida o'zini o'zi bilib boradi. O'zini o'zi baholashning rivojlanishi – uzoq va murakkab jarayon bo'lib, o'smirda bir qator maxsus kechinmalar (ko'pincha ichki nizolar) bilan kechadi. O'smirlik davrini o'rganish bilan shug'ullangan psixologlarning barchasi ana shu tomonga e'tibor qaratganlar. Ular o'smirlarga xos noturg'unlik, jizzakilik, kayfiyatning tez-tez o'zgarib turishi, ba'zida tushkunlik holatlarni qayd etganlar. Boshqa bir tomondan o'zini o'zi baholash ko'pincha psixologik himoya vositasi bo'lib xizmat qiladi, ijobiy "men" timsoliga ega bo'lishni xohlash ko'pincha individni o'z qadr-qimmatini oshirish va kamchiliklarini xaddan ziyod kamaytirishga undaydi. O'zini o'zi anglash tuzilmasida an'anaviy tarzda ongdagi komponentlar (bilish, emotsional, irodaviy) qarab chiqiladi. O'zini o'zi anglashda bu komponentlar ularning maxsus yo'nalganligi, mansubligini aniqlovchi qo'shimcha tavsiflarga ega bo'ladi.

Yuqoridagi tahlillarga asoslanib, pedagoglar tomonidan o'smirlardagi deviant xulq-atvorni boshqarish shartlarini quyidagicha ifodalash mumkin, deb o'ylaymiz:

- o'smirdagi ijobiy xislatlarga tayanish;
- affiliatsiya va muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini shakllanti-rish;
- o'smirda o'z istiqbolini (o'z rivojlanish istiqbolini) baholash, o'ziga o'zi baho berish qobiliyatlari, intellektual qobiliyatlari va ularga baho berishni rivojlantirish;
- o'smirda kasbiy yo'nalganlik, kelajakdagi kasbini tanlashi va o'zlashtirishi, o'zini o'zi tasdiqlash ehtiyojini amalga oshirish bilan bog'liq hayotiy intilishlarni shakllantirish;
- ta'lim-tarbiya jarayonida ushbu holatlarni inobatga olgan holda har bir pedagog o'smirlar faolligini oshirishga harakat qiladi.

Bundan tashqari dezadaptatsiyalashgan o'smirlar bilan ishlashda o'smirlarga pedagog tomonidan psixologik hamkorlik qilinishi yoki ularni muntazam ravishda qo'llab-quvvatlab turilishi pedagogning kasbiy faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Zero, psixologik qo'llab-quvvatlash – bu sub'ektning hayotiy tanlashning turli vaziyatlarida eng ma'qul qarorni rivojlantirishni qabul qilishi uchun sharoit yaratishni ta'minlaydigan metoddur. Mazkur tushuncha ostida hamrohlik qiluvchi bilan hamroxlik qilinayotgan sub'ekt o'rtasidagi hamrohlik qilinuvchining hayotiy muammolarini hal qilishga yo'naltirilgan o'zaro ta'siri yotadi.

Psixologik qo'llab-quvvatlash kompleks metod sifatida quyidagi komponentlar asosida talqin qilinadi:

- diagnostika;
- muammo mohiyati va uni hal qilish yo'llari haqidagi ma'lumot;
- muammoni hal qilishning turli bosqichlaridagi maslahatlar;
- qabul qilingan rejani amalga oshirish bosqichidagi birlamchi yordam.

Psixologik qo'llab-quvvatlash mohiyatini ta'riflashda zamonaviy amaliy psixologiyada bir nechta yondashuvlar mavjudligini ko'ramiz.

Jumladan, R.M.Bityanova psixologik qo'llab-quvvatlashni psixologning ta'lim jarayoni doirasidagi bolaning emotsional xotirjamligi, muvaffaqiyatli rivojlanishi,

tarbiyalanishi va o'qishi uchun ijtimoiy-psixologik sharoitlarni yaratishga yo'naltirilgan kasbiy faoliyati tizimi sifatida talqin etadi. Bu tizimga ta'lim jarayonining barcha qatnashchilarini kiritadi .

Bundan tashqari shaxsning emotsional zo'riqishlariga quyidagi uchta omil ham ta'sir qiladi ular:

1. Ijtimoiy omil
2. Shaxsiy hayotidagi muammolar
3. Atrof-muhit yoki ish joyidagi muhit.

T.V.Farmanyuk o'z tadqiqotida shaxsdagi emotsional zo'riqish simptomlarining quyidagi variantlarini aniqladi:

- Emotsional zo'riqishning his qilish;
- Asab tizimining izdan chiqishi;
- Holsizlanish, tinkasi qurish;
- Insonparvarlikning rad etilishi;
- Shaxsning tan olinmasligi;
- Atrofdagilarning yuzaki muloqoti.

Har qanday oilada o'zaro munosabatlaridan izoli vaziyatlarning yuzaga kelishi muqarrar ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, uni bartaraf etish mumkin ekanligi a'yonlashadi. Lekin shu nizolarning xarakteri ularning oqibatlariga ko'ra turli oilalar va ulardagi oilaviy munosabatlar bir biridan farqlanadi. Aslida, muvaffaqiyatli oilalardagi nizolar biriktiruvchidir va muvaffaqiyatsiz oilalardagi nizolar ajratuvchi xususiyatga ega. Shunday ekan, muvaffaqiyatli oila jamiyatning asosiy kuchi va tayanchidir. Zero, bugungi o'smirdan shaxslilik xususiyatlari, muvaffaqiyatli muloqot, umuminsoniy sifatlar va tashqi ko'rinish hisobiga o'zini qabul qilish darajasining ortishi talab qilinadi. Bundan tashqari "Men timsoli" korrektsiyasi texnologiyasi va dezadaptatsiyalashgan o'smirlardagi deviant xulq-atvorni boshqarish tizimi ta'lim sub'ektlari muvaffaqiyatiga psixologik-pedagogik hamrohlik qilishni ko'zda tutadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati**

1. Usmonova Z. “O‘quvchilarda mustaqil tafakkurni qanday shakllantirish mumkin”  
T. 2000y.
2. Фрейд А. Децкий психоанализ. – СПб.: Питер, 2003.- 477
3. Хекхаузен Х. Психология мотивации достижения / Пер. с англ.-СПб.: Реч, 2001.- 240 s.
3. A.Z. Djamilovna Study of the formation of crime motivation in adolescents as a problem of psychological research, I.N. Bakhtiyorovna - ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 2022
4. Ахмедова З.Ж. “Педагогико-психологические особенности адаптации младших школьников к учебной деятельности” Вестник интегративной психологии 2023 Выпуск 29